

## NAZAR ESHONQUL ASARLARIDA DETALNING O'RNI

Fazilat MUHAMMADIYEVA\*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada adabiyotshunoslikda badiiy asarning muhim elementi bo'lgan detal va uning Nazar Eshonqul asarlarida qo'llanishi masalasi o'rnatildi. Badiiy asarda detalning o'rni, turlari, syujet, qahramonlar, asar g'oyasini ochishdagi ahamiyati yoritildi. Zamonaviy o'zbek adabiyotida Shaxs sifatida tanilgan Nazar Eshonqulning detaldan unumli foydalaniishi tadqiq qilindi. Yozuvchining "Tun panjarasi" va "Qora kitob" qissalari, "Maymun yetaklagan odam", "Zulmat saltanatiga sayohat", "Yalpiz hidi", "Xaroba shahar surati" hikoyalarida badiiy detalning qo'llanish ko'lami tahlil etildi. Boshqa yozuvchilardan farqli bugungi zamonaviy adabiyotga yangicha ruh, yangicha tamoyillar olib kirayotgan Nazar Eshonqul ijodining o'zigagina xosligini ularda qo'llangan detallar orqali ham yanada anglash mumkinligi ta'kidlandi.

**Kalit So'Zlar:** Detal, Ruhiyat, Nazar Eshonqul, Absurd.

### The Role of Detail in The Works of Nazar Eshonqul

**Abstract:** In this article, detail, which is an important element of an artistic work in literary studies, and its use in Nazar Eshonqul's works were studied. The place, types, plot, characters, importance of details in revealing the idea of the work were mentioned. The effective use of detail by Nazar Eshonqul, who is known as a person in modern Uzbek literature, was studied. The scope of the use of artistic detail was analyzed in the writer's stories "Night Fence" and "The Black Book", "The Man Led by the Monkey", "Journey to the Kingdom of Darkness", "The Smell of Mint", "Photograph of a ruined city". It was emphasized that the uniqueness of Nazar Eshonqul's work, which brings a new spirit and new principles to today's modern literature, unlike other writers, can be further understood through the details used in them.

**Key Words:** Detail, Spirituality, Nazar Eshonqul, Absurd.

### Kirish

Ko'pincha badiiy asar o'qiyotganda, qahramonning tashqi ko'rinishi, ichki dunyosi va atrof-borlig'idagi jihatlar, elementlar, narsa-buyumlar e'tiborimizni tortadi. Ular asar g'oyasi, yozuvchining maqsadi, qahramonlar ruhiyatini ochishda o'ziga xos kalit ekaniga mutolaa davomida amin bo'lib boramiz. Ijodkorlarning asar yaratish jarayonidagi bu topilmalari adabiyotshunoslikda badiiy detal deb ataladi.

Detal (fransuzcha detail – tafsilot, mayda-chuyda) – badiiy detal; badiiy asarda muayyan mazmun ifodalovchi, g'oyaviy-badiiy yuk tashuvchi tafsilot. Avvalo, detal badiiy voqelikni yaratish vositasi – ashyosi bo'lib, u tasvirlanayotgan narsa-hodisani konkretlashtiradi, uni hissiy idrok qilish mumkin bo'lgan tarzda gavdalantiradi (Kuronov, Mamajonov, Sheraliyeva, 2010: 89-90).

Badiiy detal – esda qolarli, ifodali tafsilot bo'lib, qahramon obrazini ochish, voqeanning vizual tasvirini yaratishda muhim rol o'ynaydi. Bu muallifning niyati uchun zarur bo'lgan vositadir. Detal qo'shimcha, yashirin ma'noga ega emas. U ramziy ma'no anglatmaydi, balki xarakterning, voqealarning, tasvirlangan vaziyatning xususiyatlarini ko'rsatadi yoki ta'kidlaydi.

Badiiy detallar hayotni tipiklashtirishda, uni badiiy ifodalashda, qahramonlar xarakterining u yoki bu qirrasini ochishda, asar g'oyasini ifodalashda g'oyatda ahamiyatlidir. Detal – lo'nda, yorqin va obrazli predmet, belgi bo'lib, u tasvir obyektini kitobxonga aniq ko'rsatishga xizmat qiladi. Usiz badiiy asarni tasavvur qilish qiyin. U asarning jonli va real chiqishiga yordam beradi.

Detal badiiy asar kompozitsiyasida o'z o'rnini topgandagina vazifasini bajara oladi. U yozuvchini ko'p so'zlikdan qaytaradi, ortiqcha ifoda usullaridan saqlaydi, o'quvchiga aytmoqchi bo'lgan fikrini aniq va konkret yetkazishga xizmat qiladi.

Badiiy asarda rang-barang detallar ishlataladi: predmet detal, holat detal, sharoit detal, nutqiy detal, psixologik detal, peyzaj detal kabi. Abdulla Qahhorning "Anor"

\* "Ilm-Fan Va Innovatsion Rivojlanish" Ilmiy Jurnali Muharriri. O'zbekiston Respublikasi Oliy Ta'lim, Fan va Innovatsiyalar Vazirligi murodzoda.87@mail.ru

hikoyasidagi anor, Vilyam Shekspirning “Otello” tragediyasidagi ro‘molcha kabi detallar predmet detallarga misol bo‘la oladi.

Badiiy detal asarda o‘ziga xos vazifalar bajaradi. Jumladan:

- qahramonlarning psixologik holatini aks ettiradi;
- qahramonni xarakterlaydi, uning ichki dunyosini ochib beradi;
- o‘quvchiga muallif niyatini yetkazishga yordam beradi;
- “zamon ruhi”ni tasvirlaydi;
- asarning yetakchi tasvirlarini to‘liq ochib berishga imkon beradi va h.k.

Badiiy asarda detalning ahamiyati va vazifalari ko‘plab adabiyotshunos olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Atoqli olim Izzat Sulton bu haqda shunday yozadi: “Har bir badiiy asar kishilarning yashash sharoiti, xarakterlar, qahramonlarning psixologiyasi va ularning to‘xtovsiz o‘zgarib turishiga, rivojiga aloqador sanoqsiz badiiy detallar yig‘indisidan iboratdir” (Sulton, 1980: 406). Darhaqiqat, o‘quvchi badiiy detallarsiz asar qahramonlarining ruhiy dunyosi, shu bilan birga, uning xarakter xususiyatlarini to‘liq anglay olmaydi.

Badiiy detal har qanday davr yozuvchisiga o‘quvchining tasavvurida qahramonni ko‘rishga, davr muhitini his qilishga yordam beradigan ifodali tasvir yaratishga imkon beradi.

### Asosiy Qism

Kitob bo‘lib dunyoga kelgan asar borki, detallar asosiga qurilgan. Bugungi o‘zbek nasrining zabardast ijodkorlaridan biri, zamona viy adabiyotda o‘ziga xos Shaxs bo‘lib tanilgan Nazar Eshonqul ham o‘z asarlarida detallardan unumli foydalanadi.

Yozuvchi qissa va hikoyalarida qahramonlar ichki dunyosi, ruhiyatini ochishga alohida e’tibor qaratadiki, bu adib uslubini, individualligini belgilashda g‘oyat muhim va salmoqli rol o‘ynaydi. Bir so‘z bilan aytganda, ruhiyat tasviri Nazar Eshonqul ijodining asosini tashkil qiladi.

Adib qissa va hikoyalarida ruhiyat tasviri haqida gapirish, bu, avvalo, ulardagi ruhiyatga ishora qiluvchi detallar haqida, shunday detallardan foydalanish mahorati to‘g‘risida fikrlash demakdir.

Inson obrazini chizish, qahramon va personajlar xarakterini yaratish, ularning murakkab ichki dunyosini ko‘rsatishda badiiy detalning o‘rni beqiyos. Chunonchi, bu jihat Nazar Eshonqul asarlarida tasvirlangan sharoit, predmet, holat detallarida aniq namoyon bo‘ladi. Masalan, yozuvchining “Tun panjaralari” qissasida holat-vaziyatning detallarda badiiy dalillangan ifodasi hayotda omadsiz, ko‘nglida bezovtalik kayfiyati hukmron, adoqsiz o‘ylar qurshovida qolgan qahramon ruhiyatini to‘la namoyon qiladi. “... Bir kun unga “Tun ertaklari” degan turkum hikoyalarimning birini o‘qib bergandim. Hikoyada deyarli hech narsa yo‘q. U qandaydir tashlandiq uy va bir parcha osmon ko‘rinib turgan deraza haqida edi. Uy eski, xaroba, ichini o‘t-o‘lan bosgan zax va badbo‘y hid tutib ketgandi...” (Eshonqul, zyouz.com). Ushbu parchadagi eski, xaroba, ichini o‘t-o‘lan bosgan, bir parcha osmon ko‘rinib turgan uy qahramon ruhiyatini ochuvchi kalitdir. Bu elementlarsiz asar g‘oyasini ham, qahramon holatini ham anglash qiyin. Qissa qahramoni atrofidagi holat va fikr turg‘unligidan bezigan, “o‘zini o‘zi xayoliga bandi qilgan”, o‘zini izlayotgan odam. U bu turg‘unlikdan qochib, o‘z ko‘ngliga yashirindi. Uning bor-yo‘q isyoni shu. Uning ichida yashashga arzigulik narsa – saqlanib qolgan shu kechinmalar, xolos. U shu kechinmalari bilan o‘zini tirikman, deb hisoblaydi (Eshonqul, uzsmart.ru).

Yozuvchining “Qora kitob” qissasida ham shu xildagi detallar uchraydi. Qissa qahramoni bir o‘rinda cho‘qqi-soqolning hovlisiga borganini, hovli naq yuz yildan beri yig‘ishtirilmaganday to‘zib yotganini, hovlidan qo‘lansa – sasigan go‘shtning hidiga o‘xshash hid kelishini aytadi. Bu detallar go‘yo sharoitni tasvirlash uchun keltirilganga o‘xshaydi. Ammo e’tibor berilsa, ular o‘quvchiga qahramon haqida aniqroq tasavvur beradi. Asar

qahramoni o‘zini anglashga urinayotgan, anglab yetgan va o‘zi haqida shafqatsiz xulosa ham chiqarib bo‘lgan absurd odam.

Yozuvchi qissada sharoit detallarini qo‘llashda ularning emotsiyonal-ta’sir kuchiga e’tibor qaratib, ma’lum bir tartib bilan keltiradiki, bunday tavsir galdegagi detalning emotsiyonal jihatdan avvalgisidan ko‘ra kuchliroq chiqishini ta’milagan. Qulagan devor, zo‘rg‘a ko‘zga tashlanadigan andak vahmli xaroba uy, peshtaxtasi chirib qulab tushgan eshik, yarim nuragan hujra va yerdagi xira sham detallarining bundan oldingi sharoit detallariga nisbatan ta’sir kuchi yuqori. Bu kabi detallar vositasida yozuvchi qahramon ichki dunyosiga “darcha” ochadi.

Bunday sharoit, vaziyat, holat tasvirini yozuvchining nisbatan avvalroq yozgan “Maymun yetaklagan odam” hikoyasida ham uchratish mumkin: “... Cholning sovuq yuzini esladim-u, istihola qildim, biroq yo‘q deya olmadim. Eski uslubda qurilgan, tor tabaqali eshikdan ichkariga kirdim: chol katta ayvonda ... o‘tirgancha oldida ... Cholning uyi hashamatli, keng, lekin toshlar tilgan maydonday huvillab yotardi. Ustun va romlari chirigan, umuman, hovlidan chirkin va badbo‘y hid kelardi. Chirkin hid daraxtlardan, qor ostida qolib qarovsizlikdan xazonlikka yuz tutgan gulzordan, uyning yog‘ochlaridan va ayvonda qalashib yotgan har xil rasmlar uyumidan kelayotgan edi. Shaltoq hid esa axlat solinadigan unduqadan kelardi. Xayolimga birdan bu unduqadagi axlatlarni chol umr bo‘yi saqlab kelgan bo‘lsa kerak, degan fikr kelib qoldi” [Eshonqul, ziyouz.com]. Ushbu tasvirdagi detallar kitobxonga ijtimoiy muhit, davr qurbaniga aylangan, mutelikka, qullikka o‘rgangan shaxs siymosini yangicha uslubda ochib beradi.

“Toshlar tilgan maydonday huvillagan” yoki “ustun va romlari chirigan, chirkin va badbo‘y hid” detallari mohiyatan hoyu havasga bino qo‘yan va o‘zligini boy bergen cholning butun ich-u tashqi qiyofasini ko‘rsatayotgandek. Shu bois yozuvchi xuddi “qor ostida qolib, qarovsizlikdan xazonlikka yuz tutgan gulzordan, uyning yog‘ochlaridan va ayvonda qalashib yotgan har xil rasmlar uyumidan kelayotgan shaltoq hid” orqali o‘z nafsining quliga aylangan cholning o‘tmishiga urg‘u beradi. Axlat solinadigan unduqa esa o‘tmishning bir detalidek kishida taassurot uyg‘otadi.

Ayniqsa, “badbo‘y hid”, “chirkin hid” kabi so‘z birikmalarini Nazar Eshonqul asarlarida ko‘p qo‘llaniladiki, buni yozuvchining “Zulmat saltanatiga sayohat” hikoyasidagi ushbu parcha misolida ham ko‘rish mumkin. “... M. Tamaki va yana qandaydir qo‘lansa hidlar o‘rnashib qolgan to‘sakda o‘rnashib yotardi; timmay tamaki tutatar va po‘k-po‘k yo‘talardi. Xonasi ham xuddi hayoti kabi pala-partish edi. Men tozalanmagan stolni, isqirt to‘sakni, derazadan ko‘ra tuynukni eslatadigan romlarni, o‘qilmaganiga ham allazamonlar bo‘lgan chang bosgan kitoblarni ko‘zdan kechirar ekanman, har bir odam o‘ziga munosib bospana tanlaydi, deb o‘yladim” (Eshonqul, ziyouz.com).

Umuman, adibning ko‘pgina qahramonlari turmushining sarob ekanligini anglagan, tushkunlik botqog‘iga botgan, ruhiy iztiroblar iskanjasida qolgan insonlardir. Shu boisdan ularni tushunishda, o‘y-kechinmalarini his qilishda sharoit detallari qo‘l keladi.

Bundan tashqari, adib ijodida predmet detallarining ham alohida o‘rnib bor. Masalan, yozuvchining “Qora kitob” qissasida qo‘llanilgan qator predmet detallari asar qahramoni ruhiyatini ochishda katta rol o‘ynagan va buning aniq ifodasi katta o‘g‘il yaratgan musiqada ko‘rinadi: “... Hozir Betxovenning mashhur musiqasini eshitasizlar, dedi. Tasmadan paq-puq “gumburlash”, o‘q ovozlari, yalang‘och yelkaga tushayotganday qamchining sharap etgan tovushi eshitilardi...” [Eshonqul, ziyouz.com]. Ushbu musiqa detali asar qahramoni o‘zining adashganini, aldanganini sezib qolgandagi holatiga ishora qiladi va predmet detali sifatida asarda salmoqli vazifani bajaradi. Qissadagi bu kabi detallarni asar syujeti, kompozitsiyasiga o‘rinli kiritilgan badiiy vositalar, deb baholash mumkin.

Jumladan, qissadagi “surat” detali ham qahramonning ichki ruhiyatini ifodalovchi yorqin misoldir. Suratning “Isyon” deb nomlanishining o‘zi ham o‘zini anglashga, o‘zining

kimligini bilishga intilayotgan inson ichki dunyosining, iztiroblarining qay holatdaligini anglatadi. Asarda qahramon “Qora muqovali daftar” haqida gapiradi. Bu predmet detali o‘z hayotidan mazmun topmagan, umri yo‘qotish va aldanishlar ichida o‘tgan qahramon ruhiyatiga, iztiroblariga ishora qiladi.

Nazar Eshonqul adabiyotga, xususan, o‘zbek nasriga o‘ziga xos yangi tamoyillar olib kirdi. Yozuvchi hikoyalarida tabiat va undagi unsurlarning badiiy detal vazifasini bajarishi, ulardagι betakrorlik ham ana shu tamoyillardan biri sanaladi. U o‘z asarlarida tabiatdagi unsurlardan tortib ko‘z ilg‘amas go‘zal, eng kichik mavjudotlardan badiiy detal sifatida foydalandi. Bu esa kitobxonga makon va vaqt, qahramon ruhiy holati va asar voqealarini tasavvurida jonlantirish bilan birga hissiy-emotsional ta’sirlanish kayfiyatini beradi. Bularning barchasi iste’dodli yozuvchining badiiy mahorati, hayotiy va ijodiy salohiyatining yuksak ekanligidan dalolatdir.

Adibning “Yalpiz hidi” hikoyasidagi Samandarning tabiatga oshnoligi, qalbi go‘zallikni xush ko‘rishi, o‘zi nozikta‘b, ko‘ngil odami ekanligi yalpiz, bog‘, daraxtlar, gullar, kamalak kabi detallar orqali ochiladi. Panjara ortidagi atirgulni uzib olib, qizining xonasiga qo‘yib, uni ham tabiat go‘zalligiga oshufta qilish istagi ham uning xarakter-xususiyatiga ishora qiladi: “... Qizi hali bog‘chadan qaytmagan edi. Xotini uning qo‘lidagi gulni ko‘rdi-yu, tuvak keltirib berdi. – Umidaning xonasiga qo‘ya qoling, – dedi u ko‘zlar yashnab, gulni hidlar ekan. Samandar bosh chayqadi; o‘zi ham gulni shuning uchun keltirgandi. Gulni qizining xonasiga tuvakka qo‘ydi-da, qizining karovatiga o‘tirib, uni tomosha qila boshladи. Qizining gulni ko‘rib, qanchalik quvonishini o‘ylab, ko‘ngli yashnab ketdi. U jilmayib qo‘ydi. Yuragining quyuq tumanlari orasidan – qarovsiz bog‘dan bu ko‘rimsiz gulni topib olganidan xursand edi. Gul yolqinlanib, xonani bezab yuborganday tuyuldi. “Qizimga bu gulni so‘litma, deyman – deya o‘yladi u, – va gulni qanday parvarish qilish kerakligini o‘rgataman” (Eshonqul, ziyoruz.com).

Nazar Eshonqulning “Xaroba shahar surati” hikoyasida Tursoriya shahri nihoyatda xaroba ko‘rinishda berilgani ham bevosita qahramonning ruhiy olami, uning dard-u iztiroblari shu shaharga ko‘chib tushgandek taassurot uyg‘otadi. Hikoyani sinchiklab o‘qigan kishi unda shaharga xos detallar borligi sezadi: keng tosh ko‘cha, tegirmon, odamlar, minoralar. Vaholanki, adib hikoya davomida Tursoriya haqida yaqin odamlariga gapirib berishini ta’kidlab, shunday deydi: “Men ularga Tursoriya haqida, uning yashil bog‘lari, zangor osmoni, tuman qoplagan tosh ko‘chalari, odamzodning qudratini namoyish etish uchun qurilgan minoralari, shahardan uzoqlarda ham hidi ufurib turadigan xuddi qizlari kabi durkun va nafis gullari, qirmizi tulporlar minib yuradigan yigitlari, xayoldan ko‘ylak qilib kiygan qizlari, hilol bilan birga hilpiraydigan tug‘lari, sahar chog‘lari xo‘rozlardan ham oldin odamlarni uyg‘otadigan azonlari hamda bolaning ko‘zlar kabi tiniq va ma’sum daryolari haqida gapirib berar va bularni Tursoriya boshqalarning ham e’tiborini tortsin, deya ko‘pincha o‘zim to‘qirdim” (Eshonqul, 2011: 110).

Ushbu shaharning adib tomonidan tasvirlangan qiyofasi ham, albatta, hech kimni ortiqcha qiziqtirmagani, hayratga solmasligi tabiiy hol. Negaki, aslida, hikoya davomida surat detali qahramonning ichki dunyosi, qalb kechinmalari, ruhiy olamini ko‘rsatuvchi vosita sifatida xizmat qilgan.

Yozuvchining “Tobut” hikoyasi Sho‘ro mafkurasining odamlarni aldov, turli xayollar, oxiri sarob maqsadlar bilan tutib turgani-yu, keyinroq bu o‘lik jamiyat, kuni bitgan shahar ekani birgina tobut ramzi orqali ko‘rsatiladi. Hikoyadagi achimsiq hid, tashlandiq imoratlar, arava, zambil kabi detallar ushbu ramziy ma’noni ochishga yordam bergen.

Yozuvchi shu kabi boshqa asarlarida ham qahramonlar ruhiyatiga ishora qiluvchi detallarni unumli qo‘llaydi. Jumladan, “Qo‘l” hikoyasidagi bolta, pichoq, qamchi, sopol idishlarning siniqlari, choynak qopqoqlari, arqon yoki kigiz qoldiqlariga o‘xshagan lash-lushlar, teshik elak; “Muolaja” hikoyasidagi bolta, xivchin, qamchin, ukol, dori kabi predmet

detallari kitobxonning qahramonlar ruhiyatini tushunishida, yozuvchi niyatini anglashida o‘ziga xos topilma bo‘lib xizmat qilgan deyish mumkin.

### **Xulosa**

Muxtasar qilib aytganda, Nazar Eshonqul badiiy detalning katta imkoniyatlarga ega ekanligini o‘z asarlarida ko‘rsata olgan. Ulardan asar g‘oyasini kitobxonlarga yetkazishda unumli foydalangan. Bu esa yozuvchi asarlarining salmog‘ini belgilashda katta rol o‘ynagan. Shuning uchun yozuvchi har bir asarida detallashtirilgan tasvirga jiddiy e’tibor qaratadi. Sharoit, predmet, holat detallari vositasida o‘z qahramonlarining ruhiyatini ishonarli tasvirlaydi.

Adabiyot yashar ekan, ijodkorlar badiiy detal imkoniyatlaridan foydalanaveradi. G‘oyasi pishiq, qurilishi mustahkam asarlar esa qo‘lma-qo‘l bo‘laveradi.

### **ADABIYOTLAR**

Eshonqul, Nazar. (2011) “Shaftoli Guli”. T: O‘zbekiston.

Kuronov D., Mamajonov Z., Sheraliyeva, M.. (2010). “Adabiyotshunoslik Lug‘ati”. – Toshkent: Akademnashr 2010.

Sulton, Izzat. (1980). “Adabiyot Nazariyasi”. – Toshkent: O‘qituvchi. 406-b.

[www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com) kutubxonasi.

Adabiyot baribir yangilanaveradi [Nazar Eshonqul]. uzsmart.ru

